



ZRENADOL CHERNIKA+
PREPARATINI QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMA

TARKIBI VA CHIQARILISH SHAKLI

Tabiiy o'simliklar va ularning mevalari ekstraktidan tarkib topgan, o'ziga xos hidga ega, jigarrang (biroz cho'kma va xira ko'rinish bo'lishi mumkin) tusdagi suyuq qiyom bo'lib, himoyalovchi plombali 100 ml hajmdagi asl flakonlarda qadoqlangan: (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o'ramlar, (2) – me'yorlash qoshig'i – dozator, (3) – qo'llash bo'yicha yo'riqnomalar.

Tabiiy o'simliklar va ularning mevalaridan tarkib topgan, o'ziga xos hidga ega tabletkalar – shakli dumaloq, ikki tomoni qabariq, och jigarrang tusda. 0,5 gr.dan 60 dona. Himoyalovchi plombali blisterda (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o'ramlar, (2) – qo'llash bo'yicha yo'riqnomalar.

	100 ml	0,5 gr
Chernika mevasi ekstrakti (Vaccinium myrtillus)	30 mg.	0,06
Do'lana mevasi ekstrakti (Crataégus)	10 mg.	0,04
Igit ekstrakti (Acorus cálamus)	10 mg.	0,04
Na'matak mevasi ekstrakti (Rósa majális)	10 mg.	0,04

Yordamchi moddalar: 100 ml.gacha tozalangan suv, shakar kukuni, 95 % li etil spirti, kraxmal

PREPARATNING TA'SIRI

Zrenadol Chernika+ ko'zlarni charchoqdan, qichishish va sust ko'rishdan saqlaydi, qorong'ulikka moslashishni yengillishtiradi, ko'z kapillyarlarini mustahkamlaydi, shishish va qizarishni kamaytiradi, ko'z a'zolarini zarur ozuqaviy moddalar - vitaminlar va mikroelementlar bilan ta'minlaydi, vitamin va mikroelementlarning taqchilligi bilan bog'liq bo'lgan ko'z a'zolarining funksional holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, umumiy mustahkamlovchi ta'sirga ega tabiiy mahsulotdir. Chernika antotsianozidlari ko'z to'r pardasi pigmentining yorug'lik sezuvchanligini qayta tiklaydi, turli yorug'lik o'zgarishlariga sezgirlikni oshiradi, ko'zni qorong'ilikka yaxshi moslashishiga yordam beradi, yorug'likda xira ko'rishni yaxshilaydi. Chernikaning faol moddalarini hujayra membranalar egiluvchanligini oshiradi va ko'z pardasiga qon quyilishini yaxshilaydi, qon tomirlari, shuningdek, ko'z tubi qon tomirlari devorlarini mustahkamlaydi.

Bioflavonoidli chernika qo'shimchasi va S vitamini (na'matakning asosiy komponenti) ko'rish a'zolarida qon aylanishni kuchaytiradi, ko'z ichki bosimini tushiradi va antioksidant xususiyatga ham ega, ya'ni mustaqil radikallar ta'sirida ko'z to'qimalari shikastlanishining oldini oladi.

Bundan tashqari, ular mikroblarga qarshi va yaralangan a'zolarni bitkizuvchi xususiyatlarga ega.

QO'LLANILISHI

Zrenadol Chernika+ quyidagi holatlarda qo'llaniladi:

- Ko'rish a'zolari kasalliklari kompleks terapiyasi va profilaktikasida;
- Ko'zning og'ir zo'riqishida (kompyuterda ishslash, uzoq muddat avtomobil haydash yoki uzoq muddat quyosh yorug'ligida bo'lish);
- Ko'z tomir patologiyasi kompleks terapiyasida (katarakta, glaukoma, miopiya);

— Shabko‘rlikda (korong‘uda ko‘rishi yomonlashgan bemorlarda).

QO‘LLASH MUMKIN BO‘LMAGAN HOLATLAR

Preparatning ba’zi tarkibiy qismlariga yakka tarzdagi chidamsizlik.

QO‘LLASH USULI VA DOZALARI

Yakka tarzda belgilanadi:

	3 yoshdan 7 yoshgacha bolalarga	7 yoshdan 14 yoshgacha bolalarga	kattalarga va 14 yoshdan katta bolalarga
Tabletka	1 ta tabletkadan kuniga 2 mahal	1 ta tabletkadan kuniga 3 mahal	2 ta tabletkadan kuniga 2 mahal
Qiyom	1,5-2 ml.dan kuniga 2 mahal	1,5-2 ml.dan kuniga 3 mahal	2,5-3 ml.dan kuniga 2 mahal

Preparat ovqatlanish paytida suv bilan ichiladi. Preparatni qabul qilish davomiyligi – 1 oy. Takroriy davolanish bir haftadan keyin.

MAXSUS KO’RSATMA

Qiyomni qabul qilishdan oldin, chayqating.

NOJO‘YA TA’SIRI

Preparatning ba’zi tarkibiy qismlariga organizm ta’sirchanligi yuqori bo’lgan holatlarda, allergik reaksiyalar ehtimoli mavjud.

PREPARATNING ME’YORDAN ORTIQ QABUL QILINISHI

Preparatini me’yordan ortiq qabul qilinishi oqibatida paydo bo‘ladigan noxush holatlar haqida xabar qilinmagan.

BOSHQA PREPARATLAR BILAN O‘ZARO TA’SIRI

Boshqa dori vositalari bilan qo‘llanilganda nojo‘ya ta’siri kuzatilmagan.

SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATI

Preparat bolalar qo‘li yetmaydigan, yorug‘likdan himoyalangan joyda +2°С dan +25°С gacha haroratda saqlanishi lozim.

Saqlanish muddati – 24 oy.

Manzil: 1000011, Toshkent viloyati, Toshkent tumani,

Tel.: +998 (95) 195-59-00

E-mail: info@anfa.uz, www.anfa.uz